

Samarqand viloyati avtomobil yo'llari bosh boshqarmasi va Nurobod tuman yo'llardan foydalanish unitar korxonasi orasidagi umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarni qishki qarov ishlari bo'yicha tuzilgan

## SH A R T N O M A № 7/2 M-AYQQ 2022

“01” 02 2022-yil

Samarqand shahri.

Keyingi o'rinnlarda «Buyurtmachi» deb yuritiladigan Samarqand viloyat avtomobil yo'llari bosh boshqarmasi nomidan tashkilot nizomi asosida ish ko'ruvchi N.Sanaqulov, ikkinchi tomondan matnda keyingi o'rinda «Pudratchi» Nurobod tuman yo'llardan foydalanish unitar korxonasi nomidan korxona nizomi asosida ish ko'ruvchi M.Raimshukurov O'zbekiston Respublikasi avtomobil yo'llari Davlat qo'mitasi tomonidan aniq manzili yo'l ishlari ro'yxatida tasdiqlangan umumfoydalanuv mahalliy ahamiyatdagi avtomobil yo'llarni qishki qarov ishlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 666-685-modalari hamda Vazirlar Mahkamasining 2006-yil 1-noyabrdagi 226-son va 31.12. 2011-yildagi 352-son qarorlariga asosan ushbu pudrat shartnomasini tuzdilar.

### 1. ATAMALAR- TUSHUNCHALAR

1.1. Mazkur shartnomada quyidagi ta'riflar qo'llaniladi:

**Ijro hujjatlari** - joyida bajarilgan ishlar yoki ishlarni bajarish uchun mas'ul bo'lgan shaxslar tomonidan ularga kiritilgan o'zgarishlarning muvofiqligi to'g'risidagi yozuylar bilan birgalikda yo'llarni qishki qarov ishlari ishechi chizmalar va ishlarni bajarishda qo'llanilgan materiallar va detallarning sifatini tasdiqlovchi boshqa hujjatlar berkitilgan ishlar tasdiqlanganligi to'g'risidagi dalolatnomalar ishlarni bajarish daftarlari, yo'llardan foydalanish bo'yicha ko'rik jurnallari, yo'l va ko'priklar pasportlari, harakat jadalligi qaydnomasi va boshqa yo'llarga oid hujjatlar asosida ish yuritiladi.

**Xarajatlar smetasi** – qonunda belgilangan tartibda yuqori tashkilotlar tomonidan kelishilib, tasdiqlanadigan, oyma-oy xarajatlar moddalari bilan ko'rsatiladigan hujjat.

### 2. SHARTNOMANING MAQSADI.

2.1. Buyurtmachi Samarqand viloyat avtomobil yo'llari bosh boshqarmasi tasarrufidagi Nurobod tumanidan o'tuvchi umumfoydalanuvdagji mahalliy ahamiyatiga ega avtomobil yo'llarining qatnov qismi, yo'l ko'tarmasi, suv ketkazish tizimi, sun'iy mustahkamlovlari himoyalash, boshqaruvchi inshootlar, parom kechuvalari, yo'l jihozlari, dam olish joylari va tarixiy yodgorlikka borish yo'llari, kesib o'tish va chiqish yo'llari, qaytarish joylarda, doimiy ravishda paydo bo'ladigan mayda shikastlanishlar, toshqinlar va muz ko'chishi davrida yemirilishining oldini oladigan profilaktika ishlarni olib borish va uning barcha mol-mulkini O'zbekiston Respublikasi «Avtomobil yo'llari to'g'risida»gi harakatdagi qonuniga asosan «Pudratchi»ga avtomobil yo'llarida qishgi qarov ishlarni bajarish uchun topshiradi, Pudratchi esa tashkilot nizomida unga berilgan vakolatlar doirasida mazkur shartnomaga majburiyatlarni bajarishni zimmasiga oladi.

### 3. SHARTNOMA BO'YICHA ISHLAR QIYMATI.

3.1. Shartnomalar bahosi 2022-yil 1-chorak tasdiqlangan xarajatlar smetasiga asosan **32 000 000** (orttiz ikki million) so'mni tashkil etadi, keyingi choraklarda ajratiladigan qo'shimcha mablag'lar xarajatlar smetasiga asosan belgilanadi.

### 4. PUDRATCHINING MAJBURIYATLARI.

4.1. Mazkur shartnomaga bo'yicha ko'zda tutilgan ishlarni bajarish uchun:

- avtomobil yo'llarni qishki qarov ishlari, tizimdaggi yo'l xizmatining Samarqand viloyat avtomobil yo'llari bosh boshqarmasi O'zbekiston Respublikasi avtomobil yo'llari Davlat qo'mitasi oldidagi majburiyatlar to'g'risidagi ko'rsatmalarga qattiq rioxaya qilish;

- barcha yo'l ishlari mazkur shartnomaga muvofiq ishlarni bajarish jadvalida nazarda tutilgan hajm va muddatlarda o'zining kuchlari yoki jalb qilingan kuchlar bilan bajarish hamda ishni buyurtmachiga topshirish;

- buyurtmachini pudrat shartnomalari tuzilishi davomida yordamchi pudratchi korxonalar bilan shartnomalar tuzish, shartnomaga mavzusi, yordamchi pudratchi korxonaning nomi va manzili to'g'risida xabardor qilish;

- texnika xavfsizligi, ishlarni bajarish vaqtida atrof-muhitni, o'tkazilgan daraxtlarni va yo'l mintaqasini muhofaza qilish bo'yicha zarur, shuningdek tadbirlarni bajarilishini ta'minlash.

4.2. Pudratchi mazkur shartnomaga bo'yicha ishlarni o'z kuchi bilan yordamchi pudratchi korxonalar tomonidan zarur tarzda bajarilishi hamda avtomobil yo'llarini texnik soz holatda saqlash bo'yicha buyurtmachi oldida to'liq javob beradi.

4.3. Pudratchi ta'mirlash uchastkalarida transport qatnovini uzluksiz va xavf-xatarsiz o'tib turishi uchun javobgardir.

4.4. Pudratchiga shartnomada ko'rsatilgan muddatlarda uch oy mobaynida surunkali belgilangan rejalarni bajarmagan taqdirda qonunda belgilangan tartibda intizomiy va moliyaviy chora ko'rildi.

4.5. Pudratchi ob'yektda bajargan ishlarning hajmlarini ijro hujjatlarini, qilingan sarf-xarajatlarni buyurtmachi tomonidan mazkur ob'yekt uchun biriktirilgan texnik kuzatuvchi bilan har oyning 30 kunigacha ob'yeqtning o'zida ko'rib chiqadi va to'liq ma'lumotni Samarqand viloyat AYBB ga topshiradi.

## 5. BUYURTMACHINING MAJBURIYATLARI.

5.1. Mazkur shartnomani bajarish uchun buyurtmachi:

- ishlarni bajarilishi ustidan doimiy nazoratini va mazkur shartnomada qayd etilgan pudratchi tomonidan yo'llarni qishki qarov ishlari bo'yicha va boshqa qabul qilingan majburiyatlar funksiyalariga rivoja etilishini nazorat qilish;

- Pudratchidan yo'llarni qishki qarov ishlarni qabul qilib olishni ta'minlash;

- Pudratchining barcha murojaatlarini ko'rib chiqish va qaror qabul qilish;

Ushbu shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlarni to'liq hajmda bajarish majburiyatini oladi.

## 6. SHARTNOMANI BAJARISH MUDDATI.

6.1. Shartnomma 2022-yil "\_\_\_" 2022-yil 31-dekabrgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi.

## 7. TO'LOV VA HISOB-KITOB SHARTLARI.

7.1. Buyurtmachi Pudratchiga shartnomaga bo'yicha yo'llarni qishki qarov ishlari ishlari uchun moliyalashtirish jadvaliga muvofiq har chorakda, chorak hisobidan 40% avans to'lovi va qolgan oylardan avans chegirilib, qolgan to'lov amalga oshiradi.

7.2. Buyurtmachi tomonidan Pudratchiga avans berish va joriy moliyalashtirish moliyalashtirilgandan so'ng ishlarni bajarish aktlari (F-3, F-5) asos hisoblanadi.

7.3. Buyurtmachi mazkur shartnomaga bo'yicha o'z zimmasiga qabul qilgan majburiyatlarni shartnomma kuchga kirgan kundan boshlab, 30 kun mobaynida bajarmagan taqdirda Pudratchi bu haqida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Buyurtmachini yozma ravishda xabardor qilgan holda, shartnomaga o'zgartirishlar kiritish va shartnomani bir tomonlama tartibda bekor qilish huquqiga egadir.

Bunda Buyurtmachi Pudratchi tomonidan bajarilgan ishlarni haq to'lashdan ozod qilinmaydi.

7.4. Buyurtmachi tomonidan Pudratchining bajarilgan ta'mirlash ishlarni bo'yicha dalolatnomalar (F-3) ijro sxemalari va kerakli hujjatlari to'liq taqdim etilmaganda moliyalashtirish to'xtatib turiladi.

## 8. ISHLARNI BAJARISH.

8.1. Buyurtmachi avtomobil yo'llarni qishki qarov ishlarni ustidan texnik nazoratni amalga oshiradi, shuningdek Pudratchi tomonidan foydalilanidigan materiallar va asbob-uskunalarining shartnomasi shartlariga va ish hujjatlariga muvofiqligini tekshiradi.

8.2. Agar Buyurtmachi Pudratchi va uning yordamchi pudratchi korxonalarini tomonidan ishlarning sifatsiz bajarilganligi aniqlansa u holda Pudratchi o'z kuchlari bilan ta'mirlash qiymatini ko'paytirmasdan, ushbu ishlarni ularning zarur sifatini ta'minlash uchun kelishilgan muddatda qayta bajarishga majburdir.

8.3. Ishlarni boshlangan paytdan ular tugallangungacha Pudratchi yo'llarni qishki qarov ishlarni uchun ko'rik daftarini, ta'mirlashda ishlarni bajarish daftarini yuritadi, daftarda butun ishlarni borishi Buyurtmachi va Pudratchining o'zaro munosabatlarida ahamiyatga ega bo'lgan hollar va holatlar aks ettiriladi.

- agar Buyurtmachi ishlarning borishi va sifatidan yoki Pudratchining qaydlaridan qoniqmasa, u holda ishlarni bajarish daftarida o'z fikrini bayon qiladi.

8.4. Pudratchi o'zi tomonidan qurilishda qo'llaniladigan qurilish materiallari, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, konstruksiylar va tizimlar sifati loyiha hujjatlarida ko'rsatilgan spetsifikatsiyalarga, davlat

standartlariga, texnik shartlarga muvofiq bo'lishini hamda ularning sifatini tasdiqlovchi tegishli sertifikatlarga, texnik pasportlarga yoki boshqa hujjatlarga ega bo'lishini kafolatlaydi.

8.5. Pudratchi Buyurtmachi tomonidan asosli ravishda ko'rsatilgan kamchiliklarni o'zaro belgilangan muddatda bartaraf etish chora-tadbirlarni qurish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

## 9. SHARTNOMANI BEKOR QILISH.

9.1.

### Buyurtmachi:

- shartnoma kuchga kirgandan keyin ta'mirlashni boshlanishi Buyurtmachiga bog'liq bo'limgan sabablarga ko'ra Pudratchi tomonidan bir oydan ko'p vaqtga kechiktirilganda;

- ishlarni tugatishning mazkur shartnomada belgilangan muddati Pudratchining aybi bilan bir oydan ortiq muddatga ko'paygan holda, Pudratchi tomonidan ishlarni bajarish jadvaliga rioya etilmaganda,

- Pudratchi tomonidan shartnoma shartlari qurilish me'yorlari va qoidalarida nazarda tutilgan ishlarning sifati pasayishga olib keladigan darajada buzilganda.

9.2.

### Pudratchi:

- ishlarning bajarilishi pudratchiga bog'liq bo'limgan sabablarga ko'ra Buyurtmachi tomonidan bir oydan ortiq muddatda to'xtatib qo'yilganda,

- Buyurtmachi tomonidan moliyalashtirish shartlari bajarilmagan qonun hujjatlari muvofiq boshqa asoslar bo'yicha shartnomalarning bekor qilinishini talab qilish huquqiga ega,

- shartnomaning bir tomonlama bekor qilinishiga yo'l qo'yilmaydi, qonun hujjatlarda yoki mazkur shartnomada nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

## 10. TOMONLARNING MULKIY JAVOBGARLIGI.

10.1. Tomonlarning bir shartnoma majburiyatlarini bajarmagan yoki zarur darajada bajarmagan taqdirda aybdor tomon:

- Mazkur shartnomaga tegishli ilovalarda ko'rsatilgan o'z majburiyatlariga rioya qilmaganligi, o'z vaqtida moliyalashtirilmaganligi va shartnomada belgilangan 'boshqa majburiyatlarni buzganligi uchun Buyurtmachi Pudratchi kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyatlarning bajarilmagan qismining 0,4% miqdorida penya to'laydi, bunda penyaning umumiy so'mmasi bajarilmagan ishlarni yoki ko'rsatilgan xizmatlar qiyamatining 20% foizidan oshmasligi lozim.

- shartnomaga muvofiq bajarilgan ishlarni hajmini tasdiqlashda asossiz ravishda bosh tortganligi uchun Buyurtmachi Pudratchiga o'zi tasdiqlashni rad etgan yoki bosh tortganligi uchun so'mmani 5% foizi miqdorida jarima to'laydi.

- Pudratchi ob'ektni o'z vaqtida ishga tushirish bo'yicha o'z majburiyatini buzganligi uchun Buyurtmachiga muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun majburiyatlarning bajarilmagan qismining 0,4% foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy so'mmasi ob'ekt shartnomaviy joriy qiyamatining 20% foizidan oshmasligi lozim.

- Muddati o'tkazib yuborilganligi yoki majburiyatlarning boshqacha tarzda zarur darajada bajarilmaganligi uchun penya to'lash tomonlarni ushbu majburiyatlarni bajarishdan ozod qilmaydi.

## 11. NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI.

11.1 Shartnomani bajarishda va bekor qilishda shuningdek yetkazilgan zararlarni qoplashda paydo bo'ladigan nizoli masalalarni tomonlar hal eta olmasa, ular qonun hujjatlarda belgilangan tartibda Samarqand shahar iqtisodiy sud tomonidan ko'rib chiqiladi.

## 12. YENGIB BO'L MAYDIGAN KUCH (FORS-MAJOR) HOLATLARI.

12.1. Agar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlar qisman yoki to'liq bajarmasligi tabiat hodisalari va boshqa yengib bo'l maydigan kuch holatlari natijasida kelib chiqsa va agar bu holatlardan shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir etsa, tomonlar bunday holatda qisman yoki to'liq bajarmaslik uchun javobgarlikdan ozod etiladilar.

12.2. Agar yengib bo'l maydigan kuch holatlari yoki ularning oqibatlari bir oydan ko'p vaqtga cho'zilsa, u holda Pudratchi va Buyurtmachi ishlarni davom ettirish uchun qanday choralar ko'rinishini yuqori tashkilotlar va tegishli mutaxassislar hamkorligida muhokama qiladilar.

13. ALOHIDA SHARTLAR

- 13.1 Mazkur shartnomada nazarda tutilmagan boshqa barcha hollar uchun amaldagi qonun hujjatlari me'yorlari qo'llaniladi.

13.2 Mazkur shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan 2 nusxada tuzildi.

13.3 Mazkur shartnoma taraflar tomonidan imzolanib g'aznachilik bo'linmasidan ro'yxatdan o'tkazilgandan so'ng qonuniy kuchga kiradi.

#### 14. TOMONLARNING BANK REKVIZITLARI VA YURIDIK MANZILARI

BUYURTMAÇHİ

Nomi: Samarqand viloyati avtomobil yo'llari boshboshoarmasi

**Manzili:** Samarqand shahar, Nabiyeva ko‘ch, 3 uy  
**SHaxsiy x/r:** 304 510 860 184 017 045 173 118 001  
**STIR (INN)** 200 711 637  
**XXTK (OKNX)** 97400

Tel/faks: 234-26-08, 234-26-59

Moliya Vazirligi G'aznachiligi  
x/r: 23402000300100001010  
**Bank nomi:** Markaziy bank XKKM Toshkent shahar  
bosh qishloq

Manzil: Samarqand shahar Ko'ksaroy maydoni, 1

Manzil: Samarqand shahar Ko'ksaroy maydoni, 1



N.Sanaqulov

PUDRATCHI

**Nomi:** Nurobod TYFUK

**Manzili:** Nurobod tumani G'alaab ko'chasi  
**x/r:** 22626000700435078003  
**STIR (INN)** 201151154  
**XXTK (OKNX)** 42110

**Bank nomi** O'z.Rez TIF Milliy bank  
**Registon filiali**

MFO; 01112



M.Raimshukurov

Muhr:

Huquqshunos (Imzo va F.I.S.E) *2029*  
Litsenziya (diplom) № va boshqagan sanasi  
Imzo qo‘vilgan sana “*2029*”

Huquqshunos (Imzo va F.I.S.H.)  
Litsenziya (diplom) № va berilgan sana: \_\_\_\_\_  
Imzo qo‘yilgan sana “ ” 2022-y.





Нуробод ТЙФУК тасвирлудаг махаллий ахамиятидаги автомобил йўлларини кишики каров ишларининг 2022 йил учун яхорий нарҳдаги бабаҳолаш жадвали

№№ НП	НАИМЕНОВАНИЕ ЗАТРАТ	4К-546 а/йули	4К-556 а/йули	4Н-553 а/йули	Жами
1	2	3	4	5	6
1	ЗАТРАТЫ НА ОСНОВНУЮ ЗАРАБОТНУЮ ПЛАТУ БЕЗ УЧЕТОМ СОЦСТРАХОВАНИЕ				
2	ЗАТРАТЫ НА СОЦСТРАХОВАНИЕ 12%				
3	ЗАТРАТЫ НА ЭКСПЛУАТАЦИЮ МАШИН И МЕХАНИЗМОВ	1 173 039	682 708	1 927 468	3 783 214
4	ЗАТРАТЫ НА СТРОИТЕЛЬНЫЕ МАТЕРИАЛЫ, ИЗДЕЛИЯ И КОНСТРУКЦИИ	3 983 028	2 131 088	4 914 815	11 028 932
5	ОБОРУДОВАНИЕ				
6	ТРАНСПОРТНЫЕ РАСХОДЫ 2% ОТ СТОИМОСТИ ОБОРУДОВАНИЕ				
7	ТРАНСПОРТНЫЕ РАСХОДЫ 5% ОТ СТОИМОСТИ МАТЕРИАЛОВ				
8	ТРАНСПОРТНЫЕ РАСХОДЫ 1,5% ОТ СТОИМОСТИ КАБЕЛЯ				
9	ТРАНСПОРТНЫЕ РАСХОДЫ	3 159 039	1 690 219	3 898 063	8 747 321
10	ИТОГО ПО РЕСУРСАМ	8 315 106	4 504 016	10 740 345	23 559 467
11	ПРОЧИЕ ЗАТРАТЫ И РАСХОДЫ ПОДРЯДЧИКА 18,11%	1 505 866	815 677	1 945 077	4 266 620
12	ИТОГО	9 820 972	5 319 693	12 685 422	27 826 087
13	НАЛОГ НА ДОБАВЛЕННУЮ СТОИМОСТЬ 15%	1 473 146	797 954	1 902 813	4 173 913
14	ИТОГО	11 294 118	6 117 647	14 588 235	32 000 000
15	ПРОЧИЕ ЗАТРАТЫ ЗАКАЗЧИКА(С НДС)				
16	ИТОГО	11 294 118	6 117 647	14 588 235	32 000 000
17	ВСЕГО СТОИМОСТЬ СТРОИТЕЛЬСТВА В ТЕКУЩИХ ЦЕНАХ	11 294 118	6 117 647	14 588 235	32 000 000

Нуробод ТЙФУК директори:

М.Ранишукоров

Нуробод ТЙФУК баш мухандиси:

Г.Баракаев

Нуробод ТЙФУК ИЧБ бошлиги:

Х.Очилов

